



PIRLS DASTURI TOPSHIRIQLARI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIGA BADIY ASARNI TAHLIL QILISHNI O'RGATISH

Amonova Aziza Saydulloyevna

Navoiy davlat universiteti

*Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)
mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: Ushbu tezisda PIRLS xalqaro baholash dasturi topshiriqlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy asarni tahlil qilish metodikasi yoritilgan. Tadqiqotda PIRLSning o'qish savodxonligini baholashga oid kognitiv jarayonlari badiiy matnni tahlil qilish bosqichlari bilan uzviy bog'liqligi asoslab berilgan. Shuningdek, "Kichik bog'cha" badiiy matni misolida PIRLS tipidagi topshiriqlardan foydalanish orqali o'quvchilarda matnni tushunish, qahramonlarni tahlil qilish, asosiy g'oyani aniqlash, tanqidiy va ijodiy fikrlash hamda mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: PIRLS, o'qish savodxonligi, badiiy asar tahlili, matn tahlili, kognitiv jarayonlar, tanqidiy fikrlash.

Zamonaviy boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning faqatgina o'qish texnikasini egallashi emas, balki o'qilgan matn mazmunini chuqur anglab, uni tahlil qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, badiiy asarlarni o'qish jarayonida o'quvchilarning fikrlashi, tasavvuri, emotsional munosabati va tanqidiy qarashlari shakllanadi. Shu jihatdan qaralganda, PIRLS xalqaro baholash dasturi topshiriqlari boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy matnni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali metodik asos bo'lib xizmat qiladi. PIRLS dasturining asosiy maqsadi 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini, ya'ni matnni tushunish, undan axborot olish, xulosa chiqarish va baholash qobiliyatlarini aniqlashdan iboratdir. Mazkur dasturda qo'llaniladigan topshiriqlar o'quvchini passiv o'quvchi sifatida emas, balki faol fikrlovchi subyekt sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan. Ayniqsa, badiiy matnlar asosida beriladigan topshiriqlar o'quvchining matn mazmuniga munosabat bildirishi, qahramonlar xatti-harakatini baholashi va muallif g'oyasini anglashiga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish ko'pincha matnni qayta hikoyalash yoki savollarga qisqa javob berish bilan cheklanib qolmoqda. PIRLS yondashuvi esa bunday yuzaki o'qishdan voz kechib, matn bilan chuqur ishlashni talab etadi. Ya'ni o'quvchi matndan aniq axborotni topishi, yashirin



ma'noni ilg'ashi, voqealar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashi hamda o'z shaxsiy fikrini asoslab bera olishi lozim bo'ladi.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish savodxonligi bilan birga, tanqidiy va ijodiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirish ta'limning ustuvor vazifasi hisoblanadi. PIRLS dasturi o'quvchilarga faqat matnni yodlashni emas, balki matnni tahlil qilish, asosiy g'oya va syujetni aniqlash, personajlar va ularning harakatlarini tushunish hamda tanqidiy baholash ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

PIRLS dasturining asosiy nazariy jihati "Processes of Comprehension" tushunchasiga asoslanadi. Tadqiqotchilar bu jarayonni quyidagi bosqichlarda ko'rsatgan: bevosita ma'lumotni topish (Focus & Retrieve) – o'quvchi matndan aniq ma'lumotlarni qidiradi, oddiy xulosalar chiqarish (Make straightforward inferences) – matnda bevosita berilmagan ma'lumotlarni tushunish, g'oyalarni talqin qilish (Interpret & integrate ideas) – matn mazmuni va qahramonlar fikrlarini bog'lash orqali tushuncha hosil qilish, matn elementlarini baholash (Evaluate text elements) – janr, uslub va mazmunni tanqidiy baholash.

Tadqiqotchilar ta'kidlaydiki, bu yondashuv o'quvchilarning matnni chuqur tushunish va talqin qilish qobiliyatini shakllantiradi, bu esa badiiy asar tahlili uchun muhimdir. Ular quyidagilarni belgilaydi:

Asosiy g'oya va mavzuni aniqlash – o'quvchi qahramon harakatlari orqali matn mazmunini tushunadi.

Syujetni izohlash – voqealarning ketma-ketligi va sabab-oqibat aloqalari.

Personajlarni tahlil qilish – qahramon xarakteri va motivatsiyalari.

Tanqidiy qarash va xulosa chiqarish – o'quvchi matnga baho beradi va fikrini asoslaydi.

I. Akramova (2025) tadqiqotlariga ko'ra, o'quvchilarga matn tuzilishini o'rganish va syujetni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish muhim:

syujet va voqealar ketma-ketligini aniqlash;

qahramonlar tahlili va ularning o'zaro munosabatlari;

voqealarning sabab-oqibat munosabatlarini tushuntirish.

Tadqiqotchilar shuni qayd etadiki, PIRLS metodikasi o'quvchilardan faktlarni tahlil qilish va matn mazmunini talqin qilishni talab qiladi. Bu, ayniqsa badiiy asar tahlilida, o'quvchining qahramon qarorlarining sabablarini tushunish, matn kontekstida o'z fikrini asoslab bayon etish qobiliyatini rivojlantiradi. PIRLS dasturida topshiriqlar to'rt asosiy kognitiv jarayonni qamrab oladi: matndan axborotni topish va qayta aytish, xulosalar chiqarish, g'oyalarni talqin qilish va baholash. Ushbu jarayonlar badiiy asarni tahlil qilish bosqichlari bilan bevosita uzviy bog'liqdir. Masalan, matndan axborotni topishga qaratilgan topshiriqlar o'quvchining diqqat bilan o'qish ko'nikmasini shakllantiradi. Bunda o'quvchi qahramonlar, voqea joyi, vaqt va asosiy



voqealarni aniqlaydi. Xulosa chiqarishga yo'naltirilgan topshiriqlar esa o'quvchidan matnda bevosita berilmagan, biroq mantiqan kelib chiqadigan fikrlarni aniqlashni talab etadi. Bu jarayon o'quvchining mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi. Badiiy matnni talqin qilishga oid topshiriqlar o'quvchining muallif g'oyasini tushunishi, qahramonlar xatti-harakatiga baho berishi hamda matn mazmuniga nisbatan shaxsiy munosabatini bildirishiga imkon yaratadi. Baholashga oid topshiriqlar esa o'quvchining mustaqil fikrini shakllantirib, uning nutqiy va tafakkuriy rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy asarni tahlil qilish ko'nikmalari bir nechta tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ularning har biri PIRLS topshiriqlari orqali bosqichma-bosqich shakllantiriladi. Ushbu ko'nikmalarga quyidagilar kiradi: matn mazmunini tushunish, qahramonlar xarakterini aniqlash, voqealar ketma-ketligini anglash, asosiy g'oyani belgilash va muallif munosabatini tushunish. Quyida "Kichik bog'cha" badiiy asarini PIRLS talablari asosida tahlil qilamiz.

"Kichik bog'cha"

Bir kuni kichik bola Aziz bog'ning chetidagi kichik daraxt ostiga bordi. U yerda kichkina kapalakni ko'rdi, kapalak qanotlarini yengil silkib, gul ustiga qo'ndi. Aziz yaqinlashib:

"Salom, kapalak. Sen nimani yashirasan?" – deb so'radi.

Kapalak shivirlab:

"Men har kuni yangi gullarni topaman va ular bilan do'st bo'laman," – dedi.

Aziz bunga juda hayratlandi va o'yladi: qanday qilib kapalak shuncha ko'p gul topa oladi? U shundan keyin daraxt bo'yida gulni izlab, boshqa kapalaklar bilan uchrashdi. Har bir kapalak yangi rangdagi gullarni ko'rsatib berdi va Aziz o'rgandi: har bir gul o'ziga xos ta'rifga ega.

Kechqurun Aziz uyiga qaytganda u o'yladi: bugun men ko'p yangi narsalarni o'rgandim — ranglar, hidlar, va do'stlik haqida.

PIRLS yondashuvi bo'yicha matnni tahlil qilish quyidagi bosqichlarga asoslanadi:

1. Bevosita ma'lumotni topish (Focus & Retrieve)
 2. Oddiy xulosalarni chiqarish (Make straightforward inferences)
 3. G'oyalarni talqin qilish (Interpret and integrate ideas)
 4. Matn elementlarini baholash (Evaluate text elements)
- Savollar (asosiy ma'lumotlar):
1. Aziz qaysi joyda edi?
 2. U nimani ko'rdi?
 3. Kapalak Azizga nima dedi?



O'quvchilarga matndan aniq faktlarni topish topshirig'ini beramiz. Bu bosqichda ular faqat matnda aniq qayd etilgan ma'lumotlarga murojaat qiladi.

Oddiy xulosalarni chiqarish

Savollar (xulosa):

1. Aziz kapalak bilan nima sababdan suhbatlashdi?
2. Nima uchun kapalak Azizga yangi gullarni ko'rsatdi?

Bu bosqichda o'quvchilar matn mazmunidan bevosita bo'lmagan, lekin asosli xulosalar chiqaradilar. Masalan, kapalakning do'stlik istagi, Azizning qiziqishi haqida.

G'oyalarni talqin qilish

Savollar (talqin):

1. Bu voqea Azizga qanday tajriba berdi?
2. Gul va kapalaklar haqida Aziz nimalarni o'rgandi?

O'quvchilarga matn mazmuni va personajlarning his tuyg'ulari o'rtasida bog'lanish o'rnatishni o'rgatamiz — masalan, Aziz nima uchun yangi narsalarni o'rganib, xursand bo'lgan?

Matn elementlarini baholash

Savollar (tanqidiy baho):

1. Ushbu hikoya sizga yoqdimi? Nechunki?
2. Siz Azizdan qanday xulosa olasiz?

Bu bosqichda o'quvchi matnni shaxsiy baholaydi, o'z fikrini asoslab beradi. Bu PIRLS yondashuvida yuqori bosqich hisoblanadi.

Xulosaviy vazifa (amaliy)

1. Tahlil qilingan matn bo'yicha qisqa insho yozing:
2. Aziz nimani o'rgandi?
3. Siz bu voqeadan qanday saboq oldingiz?
4. Siz kapalak bo'lganida nima qilgan bo'lardingiz?

Qahramon xarakterini aniqlash jarayonida o'quvchi qahramonning xatti-harakatlari, nutqi va his-tuyg'ulariga e'tibor qaratadi. PIRLS tipidagi savollar orqali o'quvchidan qahramonning nima sababdan aynan shunday ish tutgani haqida fikr yuritish talab etiladi. Bu esa o'quvchining empatiya va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Asosiy g'oyani aniqlash ko'nikmasi esa badiiy asarni chuqur tushunishning muhim ko'rsatkichidir. PIRLS topshiriqlarida o'quvchidan matnning asosiy mazmunini bir-ikki jumla bilan ifodalash, muallif nimani aytmoqchi bo'lganini aniqlash talab etiladi. Bu jarayon o'quvchining umumlashtirish qobiliyatini rivojlantiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy asarni tahlil qilishni o'rgatishda PIRLS topshiriqlaridan foydalanish quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi: Birinchi bosqich — matnni tushunishga yo'naltirilgan topshiriqlar. Bu bosqichda o'quvchilar matnni diqqat bilan o'qib, asosiy axborotni aniqlaydilar.



Savollar sodda va aniq bo'lib, matn mazmunini anglashga xizmat qiladi.

Ikkinchi bosqich — axborotni tahlil qilish va xulosa chiqarish. Bu bosqichda o'quvchilar voqealar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'lanishini aniqlaydi, qahramonlar xatti-harakatiga izoh beradi.

Uchinchi bosqich — talqin va baholash. O'quvchilar matnga nisbatan shaxsiy munosabatini bildiradi, muallif g'oyasini baholaydi hamda o'z fikrini asoslaydi.

Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida PIRLS tipidagi topshiriqlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Bunda ochiq savollar, tanlovli topshiriqlar, juftlikda va guruhda ishlash shakllaridan foydalanish mumkin. Masalan, badiiy matn o'qilgandan so'ng o'quvchilarga quyidagi savollar berilishi mumkin: “Qahramon nima uchun bunday yo'l tutdi?”, “Agar siz uning o'rnida bo'lganingizda nima qilgan bo'lardingiz?”, “Matndan qanday xulosa chiqarish mumkin?”. Bunday savollar o'quvchini mustaqil fikrlashga undaydi. Xulosa qilib aytganda, PIRLS dasturi topshiriqlari asosida badiiy asarni tahlil qilishni o'rgatish boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini, tanqidiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv o'quvchilarning matn bilan faol ishlashini ta'minlab, ularni fikrlovchi va tahlil qila oladigan shaxs sifatida shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abulova D. T. “O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI MUAMMOLI O'QITISH ASOSIDA RIVOJLANTIRISH” “Science shine” International scientific journal, may 10, 2024. 410-415 betlar.
2. Akramova, I. “PIRLS mezonlari asosida o'quvchilarning matnni tushunish darajasini baholash usullari va metodikasi” Ilm Fan Xabarnomasi, 2025
<https://worldlyjournals.com/index.php/Yangiizlanuvchi/article/view/14488>
3. Avazova, D. E. (2023). PIRLS dasturi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga tizimi topshiriqlar asosida badiiy asarni tahlil qilishni o'rgatish. Science and Education, 7(2).
<https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5583>
4. Atamurodova Q.G'. Boshlang'ich sinfda qayta hikoyalalash va bayonning turlari // Inter education & global study. 2024. № 3.(1). B.130–138
5. Mullis, I. V. S., Martin, M. O., & Kennedy, A. M. PIRLS 2021 Assessment Framework. TIMSS & PIRLS International Study Center.
<https://nces.ed.gov/statprog/handbook/pirls.asp>.